

Abdimo‘minov Tog‘oynazар Abdinaxat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

Xoliyorov Hasanbek O‘rol o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

VAXSHIVOR HUDUDIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Oltinsoy tumani Vaxshivor hududida turizmni rivojlantirish masalalari yoritib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm, osma yo’l, Vaxshivor, So’fi Olloyor majmuasi, Qo’tirbuloq, Ilong’or, Teshiktosh, Toshustun, Tomchibuloq, Qilichbuloq, keksa chinor.*

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ВАГАШИВОРСКОМ РАЙОНЕ

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы развития туризма в Вахшиворском районе Алтинсойского района.

Ключевые слова: туризм, канатная дорога, Вахшивор, суфийский комплекс Олоор, Котырбулок, Илонг'ор, Тешиктош, Тошустун, Томчибулок, Кыличбулок, старый клен.

ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT IN VAHASHIVOR AREA

Annotation: This article describes the issues of tourism development in Vakhshivor region of Altinsoy district.

Key words: tourism, ropeway, Vakhshivor, Sufi Oloyor complex, Kotyrbulok, Ilong'or, Teshiktosh, Toshustun, Tomchibulok, Qilichbulok, old maple.

KIRISH.

Turizm XXI asrda eng taraqqiy etayotgan hamda mamlakatga eng ko’p daromad keltiruvchi sohalardan biriga aylanib bormoqda. Jahon siyosiy xaritasidagi Fransiya, Ispaniya, AQSH, Xitoy, Italiya, Turkiya, Meksika, Germaniya, Tailand va Buyuk Britaniya kabi davlatlar eng ko’p sayyoohlar tashrif

buyuruvchi mamlakatlar hisoblanishadi. Tailand davlati poytaxti Bangkok shahriga bir necha yildan buyon 22 millionga yaqin sayyoohlар tashrif buyurayotganli ma'lum. Bu yerga tashrif buyuruvchilar o'rtacha kun Bangkok shahri va unga yaqin hududlarda sayohat qilishadi va kuniga o'rtacha 170-175 AQSH dollori sarflashi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki turizm sohasi O'zbekiston uchun juda serdaromadli soha hisoblanadi.

Mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar turli tarixiy obidalarni, tabiat yodgorliklarini, muqaddas maskanlarni, hudud madaniyatini, so'lim maskanlarda xordiq chiqarish istagida tashrif buyurishadilar [5]. O'zbekiston hududida esa shunday maskanlar juda ko'p, ammo bu maskanlarda turistik muhit yetarli darajada shakllantirilmagan. Shunday maskanlardan biri Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Vaxshivor hududidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mazkur hudud Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridan biri Surxontog'ning janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, tabiat go'zal, bahavo, muqaddas obidalar va tabiiy yodgorliklarga ega maskan hisoblanadi. Katta Vaxshivor-1, Vaxshivor, Lo'kka, Bodihavo kabi qishloqlar hududida sayyoohlarni jalg qiluvchi tabiiy, gidrografik, qiziqarli va tarixiy maskanlar joylashgan.

"Katta Vaxshivor-1" mahallasi hududida viloyatdagi xarakterli "Telealoqa uzatish liniyasi", noyob "Suv tegirmon", "Vaxshivor" bolalar oromgohi, "Mirob" dam olish maskani, Uzun davlat o'rmon xo'jaligining "Vaxshivorsoy" tog"-o'rmon bo'limi joylashgan. "Katta Vaxshivor-1" mahallasi "Vaxshivorsoy" darasining o'rta qismida joylashgan bo'lib tabati go'zal, sharqiroq suvli tog' daryosi mavjud [3]. Hududga "Vaxshivor" bolalar oromgohi ($38^{\circ}19'52''$ simoliy kenglik, $67^{\circ}37'55''$ sharqiy uzoqlik) hududidan to Surxontog'ning Keraga cho'qqisigacha 14,8 km masofaga osma yo'llarni tashkil qilish mumkin. Hududga tashrif buyuruvchi sayyoohlар hudud tabiatini ko'rish, shuningdek Keraga cho'qqisi atrofida qishgi chang'i sport turini rivojlantirish imkonи mavjud. Osma yo'llarni tashkil qilish orqali sayyoohlар qishloq hududiga muntazam kelish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Sayyoohlar soni oshgani sayin mehmonxonalar, mehmon uylari, umumiylar ovqatlanish shahobchalarini kabi infratuzilmalarga ehtiyoj seziladi va tashkil qilinadi hamda yuzlab bo'sh ish o'rinalining yaratilishiga zamin yaratiladi. Turistlardan olinadigan daromad orqali esa hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish imkoniyati yaratiladi [4].

Vaxshivor mahallasi hududida tasavvuf va tariqat olamining yirik vakillaridan biri "So'fi Olloyor" ziyoratgohi va "Qo'tirbuloq" mineral suvli bulog'i joylashgan. So'fi Olloyor (1644-1724) islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib-tashviq qilish bilan shug'ullangan. So'fi Olloyor qabrini ziyorat qilish uchun Respublikamizning turli hududlaridan va qo'shni Tojikiston Respublikasidan ham sayyoohlar tashrif buyurishmoqda. Hozirda ziyoratgoh hududida obodonlashtirish va qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Qo'tirbuloq bulog'i respublikamizdagi shifobaxshlik xususiyatiga ega buloqlardan biri. Mazkur buloq viloyat gidrogeologiya qo'mitasi xodimlari tomonidan suvlardan namunalar olish orqali muntazam ravishda suv tarkibidagi kimyoviy elementlar, suvning qattirligi va hajmi kabi ko'rsatgichlari o'lchab boriladi. Buloq suvi tarkibi Na, Mg, Ca kabi kimyoviy elementlarga boy. Mazkur buloq suvidan mahalliy aholi va qo'shni tumanlar aholisi foydalanishadi. Buloq suvi ichish orqali oshqozon-ichak va qandli deabet kasalliklari, yuvinish orqali esa teri kasalliklariga shifo ekanligi aniqlangan [2]. Mazkur obyekt atrofida tibbiyot turizmini rivojlanish uchun imkoniyat mavjud. Shuningdek 50-60 o'rinali sihatgoh qurish lozim deb hisoblaymiz.

Lo'kka qishlog'i hududida "Qilichbulog" bulog'i, II-III asrlik chinor va Hayrandara tabiat yodgorli (suv va shamol natijasida vujudga kelgan tabiiy relyef shakllari) mayjud bo'lib, maftunkor tabiatga ega maskan hisoblanadi. Bu hududga tashrif buyuruvchi sayyoohlar uchun hosteller va ovqatlanish shahobchalarini barpo qilish lozim.

Bodihavo qishlog'ining janubi-sharqiy qismida Tomchibuloq soyligi, shimoli-sharqiy qismida esa "Iliong'or" karst g'ori joylashgan. Mazkur yo'naliishlar sayyoohlar e'tiborini o'ziga jalg etuvchi sirli maskanlardir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bunday ulkan salohiyatga ega maskanni har tomonlama rivojlantirish nafaqat tuman iqtisodiy va tabiiy salohiyatini viloyat, respublika va dunyoga namoyon qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hududda turistik infratuzulmani tashkil qilish orqali hudu aholisining daromadlari oshadi, bo'sh ish o'rirlari yaratiladi, xizmatlar soni ortadi shuningdek xorijiy sayyoohlarni jalg qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Komilova, N. K., & Abdimo'Minov, T. A. (2023). THE GEOGRAPHICAL BASIS OF STUDYING MINERAL SPRINGS. *Экономика и социум*, (1-2 (104)), 62-65.

2.Abdimo'Minov, T. A. (2022). SURXONDARYO VILOYATI MINERAL BULOQLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 810-814.

3.Abdimo'Minov, T. A., Bozorov, S. O., & Raxmatov, A. Y. (2022). SUV OMBORLAR VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI (OQTEPA SUV OMBORI MISOLIDA). *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 19-23.

4.Abdimo'Minov, T. A., Yoqubova, Q. F., & Aliboyev, E. H. (2023). MUHOFAZAGA OLINGAN HUDUDLARINI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI (KO 'HITANG DAVLAT QO 'RIQXONASI MISOLIDA). *Экономика и социум*, (5-2 (108)), 4-8.

5.Abdimo'Minov, T. A., & Cho'Liboyev, I. I. (2022). TARIXIY VA MADANIY OBYEKTLARNING TURISTIK IMKONIYATLARI (JARQO 'RG'ON MINORASI MISOLIDA). *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 14-18.

6.Abdimo'Minov B.O., & Barotova S.B. (2023). TERMIZ TUMANIDAGI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARDAN TURIZM MAQSADLARIDA FOYDALANISH. Экономика и социум, (11 (114)-2), 6-11.